DOI

Jabborov O.N.
Samarqand viloyati Pastdarg‘om tumani 2-son
kasb hunar maktabi Yoshlar bilan
ishlash bo‘yicha direktor o‘rinbosari

IJTIMOIY HIMOYAGA MUHTOJ O‘QUVCHILARNI HIMOYA QILISHDA TA’LIM MUASSASASIGA SUBSIADA AJRATISH MEXANIZMLARI

Annatatsiya
Ushbu maqolada ta’lim muassasalaridagi o‘quvchilarni ijtimoiy himoyalash tizmini takomillashtirish va shu orqali jamiyatdagi mavjud aholi va fuqarolar o‘rtasidagi muammolarni bosqichma-bosqich hal qilish bo‘yicha turli xil ilmiy, nazariy va amaliy taklif tavsiyalar keltirib o‘tilgan.
Kalit so‘zlar: *Ijtimoiy himoya, subsiada, kam taminlangan, boquvchisi yo‘q, psixologik himoya, barqarorlik, oila, jamiyat, davlat.*

Jabborov O.N.
Pastdargom district, Samarkand region No. 2
vocational school with young people
deputy director of performance

MECHANISMS OF ALLOCATING SUBSIDIES TO EDUCATIONAL INSTITUTIONS FOR THE PROTECTION OF STUDENTS IN NEED OF SOCIAL PROTECTION

Annotation
In this article, various scientific, theoretical and practical proposals and recommendations are presented to improve the system of social protection of students in educational institutions and thereby gradually solve the problems between the existing population and citizens in the society.
Key words: *Social protection, subsidy, underprivileged, no breadwinner, psychological protection, stability, family, society, state.*

Ijtimoiy himoya - keng ma’noda — mamlakat aholisini ijtimoiy va moddiy muhofaza qilinishini ta’minlaydigan va jamiyatda qaror topgan huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy chora-tadbirlar majmui. Tor ma’-noda — davlat va jamiyatning yoshi, salomatligi holati, ijtimoiy ahvoli, tirikchilik vositalari bilan yetarli ta’minlanmagani tufayli yordamga, ko‘makka muhtoj fuqarolar to‘g‘risidagi g‘amxo‘rligi. Uning asosiy maqsadi aholi farovonligining to‘xtovsiz yaxshilanishini ta’minlash, aholi qatlamlarining ta’lim, madaniyat, kasb malakasi,

https://wordlyknowledge.uz

daromadlari jihatidan keskin tafovutlariga barham berish, jamiyat tomonidan insonga munosib hayot darajasini va inson taraqqiyotini ta'minlashga yordam berishdan iborat.

Ijtimoiy himoyaning asosiy yo'nalishlari quydagilardan iborat: -erkin ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat ko'rsatishni ta'minlash;

-ish bilan bandlik, kasb tanlash, o'qish va bilim olish;

-daromadlarning kafolatlanishi;

-har bir fuqaroning o'z iqtisodiy faoliyatida daromadga ega bo'lishi;

-iste'molchilar himoyasi, iste'molchilar jamiyatlari;

-tovarlar va xizmatlar sifati, iste'mol kafolatini ta'minlash;

-aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish;

-ijtimoiy ta'minot tizimi va aholining muhtoj, kam ta'minlangan qismlariga pensiyalar, nafaqalar, turli xil imtiyozlar berish.

Himoya mexanizmi atamasi 1894-yilda dastlab Z.Freyd tomonidan fanga kiritildi. Keyinchalik mazkur sohadagi tadqiqotlarning miqdorini ortib borishi natijasida uning amaliy va nazariy ahamiyati ham ortib bormoqda.

Rivojlangan demokratik jamiyatda Ijtimoiy himoya vazifalarini bajarishni davlat o'z zimmasiga oladi. "Ijtimoiy himoya" tushunchasi birinchi marta 1935-yilda AQShning "Ijtimoiy xavfsizlik bo'yicha qonun" ida qo'llanilgan, keyinchalik Xalqaro mehnat tashkiloti konvensiyalarida bu tushuncha mazmuni mukammallashtirilgan. AQSh, Kanada, Shveysariya kabi mamlakatlarda Ijtimoiy himoyaning ko'pgina muammolari hal etilgan, lekin yechimini topmagan muammolari ham juda ko'p. Shunga qaramay, bu mamlakatlar tajribalaridan foydalanish ahamiyatlidir.

Turli mamlakatlarda aholini Ijtimoiy himoya tizimi mamlakatning iqtisodiy taraqqiyot darajasi, demokratik taraqqiyot va uning aholi manfaatiga muvofiqligi, ijtimoiy siyosat darajasi, ijtimoiy ta'minot tizimi kabi omillarga bog'liq holda amal qiladi.

O'zbekistonda Ijtimoiy himoya tizimi 20-asrning 20-yillaridan boshlab shakllana boshladi. 90-yillarga kelib, bozor iqtisodiyotiga o'tish asosida amaldagi islohotlarga mos ravishda yangidan shakllandi. Ayniqsa, milliylik, o'zlikni anglash, e'tiqod va an'analarning tiklanishi Ijtimoiy himoya tizimiga muhim yangilik bo'lib qo'shildi.

O'zbekistonda aholini Ijtimoiy himoya qilish iqtisodiy islohotlar dasturidagi uzluksiz ustuvor yo'nalishlardan biriga, ya'ni islohotlarning hamma bosqichlarida ustuvor hisoblanadigan vazifalar qatoriga kiradi. Mamlakatda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti barpo qilishda davlat tomonidan kuchli Ijtimoiy himoya - siyosati olib borilmoqda. Kuchli ijtimoiy siyosat O'zbekistonning o'z istiqdol va taraqqiyot yo'lining yetakchi tamoyillaridan biri hisoblanadi.

Respublikada Ijtimoiy himoyaning huquqiy muhiti yaratildi, unga qonuniy asos solindi. Ijtimoiy himoya tamoyillari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida kafolatlanib, qabul qilingan qonunlarda o'z aksini topdi.

https://wordlyknowledge.uz

Mamlakatda daromad olishning kafolatlanishi amalga oshirildi. Keng miqyosda yangi ish joylari yaratilishi aholini ish bilan ta'minlash ishsizlik muammosini hal qilmoqda (mamlakatda ishsizlikning statistik ko'rsatkichi 0,5—0,6%). Bunda, ayniqsa, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, kasanachilik qo'l kelmoqda. Tovarlar sifati, aholiga xizmat ko'rsatish sohalarida amalga oshirilayotgan tadbir-choralar iste'molchilar himoyasini shakllantirib, aholi manfaatlarini ta'minlamoqda. Inflyasiyaning oldini olish, so'mning xarid kuchini saqlash, biznes-tijorat ustidan davlatning domiy nazoratini o'rnatish, marketing, savdo, reklama kabilarni tartiblashtirish Ijtimoiy himoyani rivojlantirmoqda. Ekologiya bilan bog'liq bir qancha katta himoyalash ishlari amalga oshirilib, suv, havo, yer va mahsulot tozaligiga erishilmoqda.

Bozor munosabatlariga o'tish va ijtimoiy-iqtisodiy tizimni isloh qilish davrida aholini yalpi Ijtimoiy himoya qilish tizimidan ishonchli ijtimoiy kafolatlar va aholini, ayniqsa, uning nochor guruxlarini aniq manzilli va maqsadli ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi barpo etildi. Bu tizimda mahalla markaziy o'rinda turadi. Bu sohada Ijtimoiy himoya asosan, kam ta'minlangan oilalar uchun turli nafaqalar berish, aholining ba'zi guruhlari uchun imtiyozlar yaratish, yolg'iz qariya va nogironlarni davlat hisobidan boqish va b. asosida amalga oshiriladi.

Respublika Prezidentining "Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida" gi farmoniga ko'ra, voyaga yetmagan farzandlari bo'lgan ko'p bolali oilalar, kam pensiya olayotganlarning oilalari, nogironlarning oilalari, ishsizlar va boquvchisini yo'qotganlarning oilalari, yolg'iz pensionerlar va kam daromad olayotgan muhtoj oilalarga moddiy yordam berilmoqda. Bulardan tashqari O'zbekistonda norasimiy ijtimoiy yordam turlari ham mavjud; ularga qarindoshlarning o'zaro yordami, milliy va diniy urf-odatlar asosida qilinadigan yordam, korxona va tashkilotlarning pensionerlarga, kam ta'minlangan ko'p bolali oilalarga, beva-bechoralarga yordam puli berishi kiradi.

Respublikada ayollar, bolalar, keksalarga alohida g'amxo'rlik ko'rsatiladi. Ijtimoiy himoya doirasida 1998-yil „Oila yili", 1999-yil „Ayollar yili", 2000-yil „Sog'lom avlod yili", 2001-yil „Bolalar yili", 2002-yil „Qariyalarni qadrlash yili" deb e'lon qilingani va ularga taalluqli maxsus dasturlarni amalga oshirish mavjud Ijtimoiy himoya muammolarini hal qilish va bunga jamoatchilikni jalb etishda yaxshi samaralar berdi.

O'zbekiston Respublikasi aholisini 2030-yilgacha bo'lgan davrga mo'ljallangan ijtimoiy himoya tizimi ishlab chiqilgan. Unda Respublikada mavjud bo'lgan Ijtimoiy himoya va ijtimoiy yordam, pensiya ta'minoti, bolalarga nafaqa to'lash, yolg'iz keksalarga xizmat ko'rsatish, nogironlarni protez-ortopediya buyumlari, harakatlanish vositalari bilan ta'minlash, shuningdek, tibbiy, mehnat va ijtimoiy jihatdan tiklash, tibbiy xizmat, ishsizlarni ishga joylashtirish va moddiy yordam berish, bir yo'la (nomuntazam) yordam tizimlari asoslarida amalga oshirilishi belgilangan.

https://wordlyknowledge.uz

Har yili O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman), O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi, “Madad” – muassasa shaklidagi nodavlat notijorat tashkiloti hamda USAIDning O‘zbekistondagi sud-huquq islohoti bo‘yicha dasturi bilan hamkorlikda “Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga huquqiy xizmatlar ko‘rsatish samaradorligini oshirishda davlat organlarining fuqarolik jamiyati institutlari bilan o‘zaro hamkorlik yo‘nalish va mexanizmlari” mavzusida davra suhbati bo‘lib o‘tadi.

Ushbu tadbirni o‘tkazishdan maqsad aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamidan kelib tushgan murojaatlarni tahlil qilish orqali ularning huquq va manfaatlarini kompleks jihatdan himoya qilish mexanizmlarini mustahkamlash, bunda Advokatlar palatasi va huquqiy xizmat ko‘rsatishga ixtisoslashgan nodavlat notijorat tashkilotlari bilan mustahkam hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yish hamda murojaatlar bilan ishlash samaradorligini oshirishda o‘zaro tajriba almashishdan iborat.

Tadbirda Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) Kotibiyati mutaxassislari joriy yilda Ombudsman manziliga kam ta’minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolar tomonidan turar joy maydoni taqdim etish, sudda himoya qilish, ishga joylashtirish, sud qarorlari ijrosi, ta’lim, pensiya ta’minoti, ijtimoiy imtiyoz va nafaqalar, moddiy yordam berish masalalarida murojaatlar kelib tushayotganini qayd etishdi.

Ombudsman vakillarining ta’kidlashicha, mazkur tahlil, o‘z navbatida ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamga bepul yuridik xizmat ko‘rsatishning yangi mexanizmlarni ishlab chiqish va fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirish masalalarining naqadar dolzarb ekanini ko‘rsatdi. Bu jarayonda Ombudsman, Advokatlar palatasi “Madad” – muassasa shaklidagi nodavlat notijorat tashkiloti hamda boshqa NNT yaqin hamkorlikda ishlashi maqsadga muvofiq. Bunda aholiga yuridik maslahat berish bilan cheklanib qolmay, ularga amaliy-huquqiy yordam ko‘rsatish hamda o‘z huquq va majburiyatlarini yaxshi tushunib olishi va uni talab qilishi uchun targ‘ibot-tashviqot tadbirlarini kuchaytirish kerak bo‘ladi.

Psixologik himoya — bu shaxsni salbiy kechinmalardan himoya qilishga yo‘naltirilgan anglanmagan psixik jarayondir. Aynan psixologik himoya mexanizmlari qarshilik ko‘rsatish jarayonlari asosida yotadi. Shaxsning himoya mexanizmlari uning psixikasida ilk bolalik davrida paydo bo‘ladi va butun hayoti mobaynida davom etadi. Psixologik himoya mexanizmlari odamni yoqimsiz emotsional kechinmalardan himoya qiladi, psixologik qulaylik (komfort)ni saqlab berishga yordam beradi. Psixologik himoyaning funksional vazifasi va maqsadi, ongsizlikni instinktiv impulslari va tashqi ijtimoiy muhit talablarini o‘zlashtirishi, oila va jamiyatning qoida va normalarini o‘zlashtirish o‘rtasidagi ziddiyatlar bilan shartlangan, ya’ni shaxsni ichki nizolarini (xavotirlik, siqilish) yengillashtirishdan iborat.

Biz yuqoridagi muammolardan kelib chiqqan holda ta’lim muassasalarida (bog‘cha, maktab, kasb-hunar maktabi v.h) ijtimoiy himoyaga muhtoj o‘quvchilar

https://wordlyknowledge.uz

bilan ishlashni samarali yo‘lga qo‘yishda davlat va jamiyat ma’sulligini oshirish lozim bo‘ladi degan fikrdamiz. Bu borada birinchidan, ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan yosh bolalar va o‘quvchilarni davlat himoya qilishda avvalombor ularni ota-onalarni ijtimoiy himoya qilish lozim (ishsiz bo‘lsa ish bilan ta’minlash v.h). Ikkinchidan, oilada boquvchisini yo‘qotgan farzandlar uchun davlat tomonidan moddiy jihatdan qo‘llab quvvatlash (yordam pullari v.h). Uchinchidan, har bir ijtimoiy himoyaga muhtoj o‘quvchilarni (16 yoshdan) davlat tomonidan cheklanmagan tarzda moddiy himoyalash tizimini shakllantirish va uni amaliyotga olib kirish. Xususan, tadbirkorlik sub’ekti uchun “subsiada”lar ajratish mexanizmini ishlab chiqish va u orqali yoshlar himoya sektorini kuchaytirish bugungi kunning eng katta talab va takliflaridan biri bo‘lib turibdi.

Ijtimoiy barqaror bo‘lgan oila, jamiyat va davlatda tinchlik, osudalik va farovonlik mavjud bo‘ladi. Bunda biz yuqorida ta’kidlab o‘tilgan taklif va tavsiyalarimiz jamoatchilik tomonidan o‘rganilsa amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida shuni alohida ta’kidlab o‘tishimiz joizki har bir davlat va jamiyatda mana shunday (ijtimoiy himoyaga muhtoj) qatlamlar o‘z vaqtida davlat va davlat tashkilotlari tomonidan rag‘batlantirilib borilsa albatta nur ustiga a’lo nur bo‘lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. I. Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, 2008-yil.

WORDLY
KNOWLEDGE

https://wordlyknowledge.uz